

## BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM JIHATLARI

*L.U.Akbarova*

*Toshkent davlat transport universiteti*

*“Transport iqtisodiyoti” kafedrasida katta o‘qituvchisi*

*A.D.Komolov, TDTU talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyotning mohiyati, iqtisodiyotdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, boshqaruvda raqamli texnologiyalarni qo‘llash va ularning samaradorligini baholash imkoniyatlari nazariy jihatidan yoritib berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** raqamli iqtisodiyot, boshqaruv, boshqaruv faoliyati, samaradorlik, iqtisodiy samaradorlik.

Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko‘tarish maqsadida 2020 yil «Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili» deb nomlandi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga murojatnomasida takidlaganidek «Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda “Raqamli O‘zbekiston-2030” dasturi hayotga tadbiiq etishimiz zarur»[1].

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarining samarali boshqaruv tizimini tashkil etishda korporativ boshqaruvni takomillashtirish, korporativ boshqaruv standartlarini joriy qilish, boshqaruv jarayoniga raqamli texnologiyalarni qo‘llash kabi masalalar bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishlar va yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy korxonalarini yanada rivojlantirish dasturidagi vazifalardan kelib chiqqan holda aksiyadorlik jamiyatlariga zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini keng joriy etish, investitsiyalarni jalb etish, innovatsion jarayonlarni rivojlantirish, korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish va buning uchun zarur shart-sharoitlar yaratish talab etilmoqda. Shunday ekan iqtisodiyotni rivojlantirishning yangi mexanizmlaridan biri sifatida raqamli texnologiyalar asosida raqamli iqtisodiyotga o‘tishdir.

“Raqamli iqtisodiyot” tushunchasi birinchi marta Massachusetts texnologiya instituti olimi Nikolas Negroponte tomonidan 1995 yilda ishlatilgan. Iqtisodiyotning raqamli segmentini kengayishining asosiy sababi bo‘lib transaksion sektorning o‘sishi hisoblanadi. Transaksion sektorga quyidagilar kiradi.

- davlat boshqaruvi
- moliya-bank tizimi
- ulgurji va chakana savdo
- kommunal va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

Raqamli iqtisodiyot – bu noldan boshlab yaratilishi lozim bo'lgan qandaydir boshqacha iqtisodiyot emas. Bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish deganidir.

Belgilari:

- yuqori darajada avtomatlashtirilganlik;
- elektron hujjat almashinuvi;
- buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining elektron integrasiyalashuvi;
- ma'lumotlar elektron bazalari;
- CRM (mijozlar bilan o'zaro munosabat tizimi) mavjudligi;
- korporativ tarmoqlar.

Qulayliklari:

1. To'lovlar uchun xarajatlar kamayadi (masalan, bankka borish uchun yo'lkira va boshqa resurslar tejaladi).
2. Tovarlar va xizmatlar haqida ko'proq va tezroq ma'lumot olinadi.
3. Raqamli dunyodagi tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari katta.
4. Fidbek (iste'molchi fikri)ni tez olish hisobiga tovar va xizmatlar jadal takomillashtiriladi.
5. Tezroq, sifatliroq, qulayroq.

Raqamli platformalarning rivojlanish sohasidagi yorqin misollardan biri sifatida “Alibaba” elektron savdo tizimiga ega bo'lgan Xitoy kompaniyasini keltirib o'tish mumkin. Undan foydalanish tajribasi shuni ko'rsatadiki, ma'lumotlar to'plash jarayonida iqtisodiyotning turli sektorlariga ekspansiya uchun o'ta raqobatli ustunliklar yaratiladi. “Alibaba” bu – oddiygina raqamli platforma emas, balki platformalar ekotizimidir.

Korporativ boshqaruv tushunchasi O'zbekistonda kodeks orqali o'zining qonuniy hujjat sifatida qabul qilingan. Korporativ boshqaruv tuzilmasi korporatsiyaning turli ishtirokchilari orasida huquq va mas'uliyatlarni taqsimlashni belgilaydi, masalan, Kengash, menejerlar, aksiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlar korporativ ishlar bo'yicha qarorlar qabul qilish qoidalari va tartiblarni ko'rib chiqadi. Korporativ boshqaruv hozirgi kunga kelib korxonalarni boshqarishning nafaqat zamonaviy falsafasiga, balki samaradorlikni ta'minlaydigan muhim texnologiyasiga aylanib ulgurdi. Takomillashgan korporativ boshqaruv natijasida iqtisodiy qo'shilgan qiymatning (economic value added – EVA) sezilarli darajada

ko'payishi, samaradorlikning ortishi va riskning kamayishi yuz berishi turli empirik tadqiqotlarda o'z aksini topgan.

Korxonalar boshqaruvida qo'llaniladigan biznes jarayonlarini avtomatlashtirish texnologiyasi ma'muriy ishlarni avtomatlashtirish bilan bog'liq va asosiy klassik boshqaruv funksiyalari (rejalashtirish, tashkil etish, faollashtirish, muvofiqlashtirish va nazorat)ni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Bunday tizimlardan foydalanish, qarorlar qabul qilishning yuqori samaradorligini ta'minlash, axborot jarayonlarini birlashtirish, korxonaning hujjat aylanishini takomillashtirish, funksiyalarning takrorlanishini bartaraf etish, umuman olganda, ish samaradorligini oshirish va korxonalar faoliyati uchun axborotni qo'llab-quvvatlash xarajatlarini kamaytirishga imkon beradi.

Korporativ boshqaruv nazariyalari tahlilidan kelib chiqib, korxonalar faoliyatiga ta'sir etuvchi tashqi muhitning doimiy o'zgaruvchanligining inobatga olib, mavjud xatarlarni kamaytirish zarurati, katta hajmdagi axborot ma'lumotlari, korporativ boshqaruv vaqt omilini hisobga olgan holda etarli qarorlar ishlab chiqish va qabul qilish salohiyatining oshishiga asos bo'lishi mumkin.

Korxonalarining raqobatdoshligini baholashda boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichlari muhim rol kasb etadi. Boshqaruv samaradorligi korxonaning yillik sof foydasini yillik boshqaruv xarajatlariga nisbati shaklida aniqlash usuli tanland [2].

$$BS = USK / BX$$

Bu erda:

BS – boshqaruv samaradorligi

USK – umumiy samaradorlik ko'rsatkichlari;

BX – boshqaruv xarajatlari.

Boshqaruv samaradorligi koeffitsienti qancha yuqori bo'lsa shuncha yaxshi, bu koeffitsient boshqa baholash ko'rsatkichlariga mos keladi.

Raqamli texnologiyalar asosida korporativ boshqaruvining samaradorligi tegishli qo'yidagi ko'rsatkichlardan foydalangan holda baholanadi: direktorlar kengashi faoliyatining ko'rsatkichlari - bu yangi mahsulot va xizmatlarni bozorga tezkor ravishda chiqarilishida raqamli texnologiyalarning ulkan hissasi; yangi mijozlarni jalb qilish va mavjud bo'lgan shikoyatlar yo'qligi; xizmatlar ko'rsatish uchun yangi kanallarni yaratish. Kompaniyaning ijro etuvchi menejmenti samaradorligining ko'rsatkichlari sifatida, axborot tizimlari va xizmatlarining mavjudligi va raqamli texnologiyalar xizmatlarining tobora o'sib borayotgan darajasi ko'rib chiqilishi mumkin; amaldagi xarajatlarning rejalashtirilganidan og'ishi; xodimlarning samaradorligi va qoniqligi.

Davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini baholash uchun davlat boshqaruvi sifatining turli tomonlarini (davlat aralashuvi asosiligi, natijadorlik va samaradorligi) ko'rib chiqish, shuningdek, bir tomondan

davlat boshqaruvi ehtiyojlarini tahlil qilish va bunday ehtiyojlarni qondirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, davlat boshqaruvida ma'lum raqamli texnologiyalarni joriy etishning maqsadga muvofiqligi mezonlari sifatida quyidagilarni ko'rib chiqish taklif etiladi:

- samaradorlik – bu yoki boshqa raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ko'rib chiqilayotgan yo'nalishda davlat boshqaruvi sifatini oshirish ehtiyojlarini qondirishga yordam berishi kerak, shu sababli davlat boshqaruvi samaradorligi va uning o'ziga xos parametrlarini oshirishni ta'minlashi kerak (masalan, texnologiyani joriy etish muayyan davlat funksiyalarini bajarish muddatlarini qisqartirishga olib kelishi mumkin. Yangi jamoat tovarlari paydo bo'lishi va boshqalar);

- iqtisodiy samaradorlik – bittasini joriy etish davlat boshqaruvidagi boshqa raqamli texnologiyalar byudjet xarajatlarini (xech bo'lmaganda asbobuskunalarni saqlash xarajatlari) yoki fuqarolar va tashkilotlarning xarajatlarini kamida o'rta muddatli istiqbolda kamaytirishga yordam berishi kerak;

- tashqi raqobatbardoshlik – tashqi tomonlar orqali belgilangan shartlar va o'lchamlar mavjudligi, standartlar, kutilayotgan natijalar (masalan, xususiy sektorning rivojlanishi darajasi va davlat xizmatlarini taqdim etishning sifat ko'rsatkichlariga nisbatan fuqarolar va ularning xususiy kompaniyalar (nodavlat tashkilotlari tomonidan taqdim etiladigan xizmatlardan foydalanish) tajribasi asosida)[3].

Bu mezonlar bo'yicha baholashni o'tkazish uchun ma'lum bir texnologiyadan o'xshash maqsadlarda (shu jumladan xususiy sektorda yoki chet elda) foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Istiqbolli (hozirda bu maqsadlar uchun foydalanilmayotgan) texnologiyalarni tatbiq etish imkoniyatlarini baholash uchun ularni ko'llash samaradorligi va iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi.

Shu bilan birga raqamli texnologiyalarni joriy etishning asosiy xatarlari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- ❖ hukumatning muhim sohalarida nazoratni yo'qotish;
- ❖ shaxsiy ma'lumotlardan ruxsatsiz foydalanish;
- ❖ avtomatlashtirilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish paytida inson huquqlari buzilishi ehtimoli;

- ❖ tashkiliy xatarlar, shu jumladan idoraviy axborotlashtirishdan platformaviy yechimlarga o'tish uchun ayrim hokimiyat vakillarining qarshiligi (boshqaruv imkoniyatini yo'qotish xavfi, faoliyat bilan bog'liq ma'lumotlarning jamoatchilik uchun ochiqligidan qo'rqish).

Xulosa qiladigan bo'lsak, korporativ boshqaruvning bir qismi sifatida raqamli texnologiyalar asosida korporativ boshqaruv kompaniyaga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- kompaniya rahbariyati, uning egalari va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi munosabatlar tizimini aniqlash;
- kompaniyaning maqsadlari belgilanadigan jarayonlarni joriy qilish, ushbu maqsadlarga erishish usullari va ushbu maqsadlarga erishish uchun faoliyat samaradorligini o'lchash usullari tavsiflanishi;
- kompaniyaning biznesidan axborot texnologiyalaridan foydalanishdan foyda olishiga va undan foydalanish bilan bog'liq xavflarning maqbul darajaga tushirilishiga ishonch hosil qilinadi.
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezligi oshishi, nazorat qilish jarayoni soddalashtirilishi va zamonaviy boshqaruv usuliga o'tishni ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida kompaniyada korporativ boshqaruvning 148 samaradorligini, shaffofligini va ochiqligini ta'minlab kompaniyaning investitsiya jalb qilish darajasini kengashytiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. / 2019 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasi / 2018 yil 28 dekabr
2. Ivanova E.A. Teoriya menedjmenta. Uchebnoe posobie. – M.: MIIT, 2014. - 147 s.
3. Dobrolyubova Ye.I., Yujakov V.N., Yefremov A.A., Klochkova Ye.N., Talapina E.V., Starsev Ya.Yu. sifrovoye buducsee gosudarstvennogo upravleniya po rezultatom. – M., S.46.
4. Шакирова, Ф. Б. (2022). ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШНИ ТАЪМИНЛАШДА ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ. *Journal of new century innovations*, 17(1), 106-113.
5. Шакирова, Ф. Б. (2022). ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ МОДЕЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ БИЛАН АЛОҚАДОРЛИГИ. *Journal of new century innovations*, 17(1), 101-105.
6. Шакирова, Ф. Б. (2022). МАМЛАКАТДА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВА САМАРАЛИ ИҚТИСОДИЙ ЎСИШНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ЗАРУРЛИГИ. *Journal of new century innovations*, 17(1), 114-118.
7. Boltaevna, S. F. A., & Upashevna, A. L. (2022). Signs of Innovation Economy and its Assessment Indicators. *Specialusis Ugdymas*, 2(43), 3178-3190.
8. Shakirova, F. B. (2022). ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИ СОҲАСИДАГИ ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЧИЛИК МУНОСАБАТЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 16(3), 82-85.

9. Shakirova, F. B. (2022). INNOVATIVE DEVELOPMENT MODELS AND THEIR RELATIONSHIP WITH ECONOMIC GROWTH. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(10), 662-665.
10. Шакирова, Ф. Б. (2022). ТРАНСПОРТ СОҲАСИДА ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЛИК МЕХАНИЗМЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ХОРИЖИ ТАЖРИБАСИ. *Journal of new century innovations*, 15(3), 66-74.
11. Шакирова, Ф. Б., & Махмудова, П. (2022). ВЛИЯНИЯ ИНВЕСТЦИЙ И ИННОВАЦИЙ НА ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РОСТ. *Journal of new century innovations*, 15(2), 142-146.
12. Shakirova, F. B. (2022). TALIMDA IMMERSIV YONDASHUV. *Journal of new century innovations*, 15(2), 138-141.
13. Shakirova, F. B., & Sattorova, S. B. (2022). “O ‘ZBEKISTON TEMIR YO ‘LLARI” AJ FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO NAMKORLIK FAOLIYATI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(9), 4-9.
14. Набижонов, О., Шавкатова, Ш., & Сатторова, С. (2022). КОРХОНАЛАРДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ХАРАЖАТЛАРИНИ МИНИМАЛЛАШТИРИШ СТРАТЕГИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2(7), 27-29.
15. Набижонов, О., Хужамкулов, З., & Юлдашева, С. (2022). РЕЗУЛЬТАТИВНОСТЬ УПРАВЛЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННЫМИ ИЗМЕНЕНИЯМИ НА ТРАНСПОРТНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2(5), 239-246.